

XOQONIY SHIRVONIYNING IJODIDA QASIDA JANRI

Jumayeva Kamola

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya institute Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrasi Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xoqoniy Shirvoniylarning ijodida qasida janri va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlilga tortildi. Shoir devonidagi qasidalarining adadi, ularning mumtoz devonchilik an'analariga muvofiqligi eksperimental tahlil usullariga tayangan holda tadqiq etildi. Shoir qasidalarining mavzu ko'lamining xilma-xilligi, ularning kimlarga bag'ishlanganligi aniqlanilgan.*

Kalit so'zlar: *Xoqoniy Shirvoniylarning, qasida, devon, marsiya.*

Abstract: *This article analyzes the qasida genre and its distinctive features in the works of Khagani Shirvani. The number of qasidas in the poet's divan and their conformity to the traditions of classical divan literature were studied using experimental analysis methods. The diversity of themes in the poet's qasidas and the individuals to whom they were dedicated were also identified.*

Keywords: *Khagani Shirvani, qasida, divan, elegy.*

Аннотация: *В данной статье анализируются жанр касиды и его своеобразные особенности в творчестве Хагани Ширвани. На основе методов экспериментального анализа исследованы количество касид в диване поэта и их соответствие традициям классической диванной литературы. Также выявлены разнообразие тематического содержания касид поэта и круг лиц, которым они были посвящены.*

Ключевые слова: *Хагани Ширвани, касида, диван, элегия.*

Xoqoniy Shirvoniylarning ijodida qasidaning alohida o'rni bor. Shoir ijodini qasidalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. U qasida janrida sermahsul ijod qilgan. Zabihulloh Safo Xoqoniy Shirvoniylarni "qasidanavis buyuk shoirlardan"¹⁵, Yan Ripka esa "Xoqoniy madhiyago'y shoir"¹⁶ deya qayd etgan.

Ma'lumki, qasida fors adabiyotining keng tarqalgan, uzoq va boy tarixiga ega janrlaridan biri. Dastavval, arab adabiyotida vujudga kelgan bu janr forsiyzabon shoirlar mahorati, say harakati bilan jahon adabiyoti erishmagan natijalarni qo'lga kiritgan. Qasida va uning kelib chiqishi, turlari va janrning asosiy shakli, mazmuni haqida ko'p manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Qisqaroq qilib aytganda, qasida arabcha (قصيد) so'zidan olingan bo'lib "maqsad,

¹⁵ ذبيح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران. جلد دوم. - تهران، ۱۳۷۱. - ص. ۷۸۲.

¹⁶ يان ريپكا و ديگران. تاريخ ادبيات ايران. - تهران، ۱۳۸۱. - ص. ۲۸۱.

niyat” va lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “to‘lib yetilgan yirik mag‘z”¹⁷ degan ma’nolarni bildiradi. Odatda qasida baytlari “yetti va o‘n baytdan oshadi va forsiy qasidalarining birinchi bayti bir xil qofiyalanadi”¹⁸. Zabihulloh Safo “qadimda tantanavor uslub va dabdaba qasidaga xos bo‘lgan”¹⁹ deydi.

Qasida odatda biror-bir tarixiy shaxs, qahramon yoki muhim tarixiy voqeaga madhiya tarzida yozilgan. Fors adabiyoti taraqqiyoti jarayonida qasida ham shaklan, ham mazmunan katta transformatsiyaga uchragan. XX asr olimlarining aniqlashicha qasidaning 20 dan ortiq turi bor. Sayid Ahmad Husayn qasidalar quyidagi “madhiya, habsiya, marsiya, axloqiy, ijtimoiy, tanqidiy, diniy, siyosiy, vatanparvarlik va erksevarlik mavzulariga bag‘ishlanadi”²⁰ deya e’tirof etgan. Sh.Shomammedov esa ularga qo‘shimcha tarzda “munojot, na’t, faxriya, hajviya, marsiya, bahoriya, ishqiya, hamriya, holiya, tarixiy qasidalar, mahdud, tashbib, tasavvufiy va sun’iy qasidalar”²¹ borligini qayd etgan.

Qasidaning lug‘aviy ma’nosi va mohiyatiga doir dastlabki mulohazalar XI-XII asrlardagi adabiy asar, lug‘at va tazkiralarda bayon etilgan. Xususan, ularga Rashididdin Votvotning “Tarjumon ul balog‘a-i Rodiyoniy”, “Hadoiq us-sehr”, Shams Qays Roziyning “Al-mu’jam fi ma’oyiri ash’ori Ajam”²² kabi asarlari misol bo‘ladi. Keyingi asrlarda qasidaga doir nazariy qarashlar “Atoullah Mahdud Husayniyning “Badoye’ us-sanoe’”, Tojulhaloviyning “Daqiq ush-she’r”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Badri Chojarmiyning “Munis ul-Ahror”²³, “Funun ul-balog‘a”²⁴ va boshqa asarlarida bayon etilgan.

Xoqoniy Shirvoniyning qasidaları va ularning adadi turli manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Xususan, o‘zbek olimasi M.Hasanova Xoqoniy devonida 220 ta qasida borligini qayd etgan²⁵. Shuningdek, tojik olimi T.Keldiyorov Xoqoniy Shirvoniyning 106 ta katta va 110 ta kichik qasidasi borligini e’tirof etgan²⁶. Shoir qasidaları yaqindan o‘rganilar ekan, tadqiqot obyekti bo‘lgan devonda uning 132 ta qasidasi borligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, forsiyzabon shoirlar ijodi va fors tiliga doir manbalar yuzasidan ma’lumot beruvchi onlayn ensiklopediya – “iranica.com” saytida ham Xoqoniy Shirvoniyning qasidalarining adadi 132 ta²⁷ ko‘rsatilgan.

¹⁷Хасанова М. XV аср туркий шеърятига қасида жанри: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 11.

¹⁸ محمّد معین و سیّد جعفر شهبیدی. لغت نامه دهخدا. جلد یازدهم – تهران، ۱۳۷۳. – ص. ۱۵۵۳.

¹⁹ ذبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران. جلد دوم. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۶۰۹.

²⁰ سیداحمد حسینی کارونی. قصیده، معانی و سیر تحول آن تا سده هفتم و هشتم هجری در ادب فارسی. – ایران، ۱۳۹۵. – ص. ۸.

²¹ Шомухамедов Ш. Форс шеърятининг асосий шакллари. – Тошкент, 2004. – Б. 82.

²² Казакова У. Қасыда и её традиции в персидско – таджикской поэзии XIII-XIV веков: Дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2006. – С. 3.

²³ O’sha manba. – B. 4.

²⁴ Юсупова Д. Аруз вази ва мумтоз поэтика. – Тошкент: Таълим медиа, 2019. – Б. 152.

²⁵ O’sha manba. – B. 21.

²⁶ Келдиёров Т. “Шархи қасоиди Хоқоний” – и Алавий Шодиободий ва масъалаҳои маърифати бадеий ашъори Хоқоний: Diss. ... канд. филол. наук. – Хужанд, 2000. – С. 18.

²⁷ Khaqani Servani works. www.iranicaonline. (Manbaga 29.07.2023 da murojaat qilindi).

Xoqoniy Shirvoniy devonida ا (alif) harfi bilan tugallanuvchi 11 ta, ب (ba) harfi bilan tugallanuvchi 4 ta, ت (ta) harfi bilan tugallanuvchi 11 ta, د (dol) harfi bilan tugallanuvchi 28 ta, ر (ro) harfi bilan tugallanuvchi 5 ta, س (sin) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, ش (shin) harfi bilan tugallanuvchi 5 ta, ق (qof) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, ك (kof) harfi bilan tugallanuvchi 1 ta, م (mim) harfi bilan tugallanuvchi 20 ta, ن (nun) harfi bilan tugallanuvchi 18 ta, و (vov) harfi bilan tugallanuvchi 3 ta, ه (hoye hav-vaz) harfi bilan tugallanuvchi 14 ta, ي (yo) harfi bilan tugallanuvchi 10 ta qasida o‘rin olgan.

Ko‘rinadiki, Xoqoniy Shirvoniy devonida fors alifbosidagi hamma harflarga ham qasida yozilmagan. Devondagi eng ko‘p qasidalar د (dol) harfi bilan tugallangan qasidalar bo‘lib, son jihatdan ular 28 ta. س (sin), ق (qof), ك (kof) harflari bilan tugallanuvchi qasidalar eng kam qasidalar bo‘lib, ularning har biriga bittadan qasida yozilgan.

Ma‘lumki, XII asrga kelib qasidaning shakli murakkablashib, mazmuni kengaya borgan. Bu haqida rus sharqshunosi M.Reysner “keyinchalik qasidaning shakli transformatsiyaga uchrab, ba‘zan juda murakkablashdi”²⁸ deya Xoqoniy Shirvoniy qasidalarini misol qiladi. Haqiqatdan ham shoir qasidada mumtoz adabiyot an‘analarini davom ettiribgina qolmay, uslubni tobora murakkablashtirdi. Shoir devonidagi qasidalarini mavzulashtirganda yuzdan oshiq kartateykalar tuzildi. Natijada devonda “na’t²⁹, madhiya³⁰, faxriya³¹, habsiya³², holiya³³, hajviya, marsiya, tasavvufiy, axloqiy, tanqidiy, mahdud³⁴, shikoyat kabi 10 dan oshiq mavzularga bag‘ishlangan qasidalar borligi, Muhammad (s.a.v) na’ti, madhiga bag‘ishlangan qasidalar pand – nasihat, hikmat, uzlat, shikoyat mavzulari bilan yonma-yon kelganligi aniqlandi. Shuningdek, iydiya³⁵, hamriya³⁶, ishqiya³⁷, bahoriya³⁸ va tabrik mavzulariga alohida qasidalar yozmagani, bunday qasidalar madh mavzusi bilan yonma-yon kelganligi hamda “tarixiy, siyosiy, sun’iy” qasidalar deyarli uchramaganligi kuzatildi.

Shoir devonidagi qasidalar mavzusiga ko‘ra mumtoz devonchilik an‘analariga muvofiq joylashtirilgan. Ya’ni devonning ا (alif) harfi bilan tugallanuvchi qasidalar turkumidagi birinchi qasida “Ollohning yagonaligi va hazrati hotami anbiyo madhida” bag‘ishlanib, u “badan sovutin yechib, mardlar safiga qo‘shil” misrasi bilan boshlangan. Ikkinchi va uchinchi qasidalar Muhammad (s.a.v) madhida, to‘rtinchi na’t qasida, beshinchi Muhammad (s.a.v)

²⁸ Рейснер М. Персидская лироэпическая поэзия X – начала XIII века. – Москва: Наталис, 2006. – С. 153.

²⁹ Na’t – payg‘ambar tavsifida, undan najot istab yozilgan qasidalar.

³⁰ Madhiya – podshohlar va boshqa kishilar maqtoviga bag‘ishlangan qasidalar.

³¹ Faxriya – shoirlar o‘z ishlaridan faxrlanib, asarlaridan mag‘rurlanib, o‘zlarini maqtab yozgan qasidalar.

³² Habsiya – mahbuslik azob-uqubatlari, zindon kechinmalariga bag‘ishlangan qasida.

³³ Holiya yo xabsiya – shoir tarjimai holi, zamondan nolish, zamon nopokliklaridan shikoyat kabi mavzulardagi qasidalar.

³⁴ Mahdud – cheklangan qasidalar. Nasibsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri madhdan iborat qasidalar.

³⁵ Hayit munosabati bilan yozilgan qasidalar.

³⁶ Hamriya – may va ichish qoidalariga, shohona bazmlarga bag‘ishlangan qasidalar.

³⁷ Ishqiya – ishq, muhabbat, yor-u do‘stlik haqidagi qasidalar.

³⁸ Bahoriya – butunlay o‘zi yoki uning nasib qismi bahor vasfiga bag‘ishlangan qasidalar..

me’roji va pand nasihatga bag‘ishlangan. Shundan so‘ng, bu turkumda faxriya, shikoyat, mamduh madhi, qasida shaklidagi marsiya va boshqa mavzularga bag‘ishlangan qasidalar o‘rin olgan.

Devondagi 132 ta qasidaning faqat 1 tasi sarlavhasiz³⁹, qolganlariga sarlavha qo‘yilgan. Tadqiqot davomida eng ko‘p baytli qasidalar madh mavzusiga bag‘ishlanganligi va ular 90, 122, 150, 210 baytdan iboratligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, “در پند و اندرز و ستایش رکن الدین مفتی – Pand va nasihat va raylik olim, mufti Rukniddin va Tojiddin Roziy ibn Aminiddin madhida” madhida yozilgan qasida 210 baytdan iboratligi aniqlandi.

Devondagi eng ko‘p qasidalar madh mavzusiga bag‘ishlangan qasidalar bo‘lib, ular Xoqoni Akbar Shirvonshoh Manuchehr, Xoqoni Akbar Abulmuzaffar Axsatan Shirvonshoh, Muzaffariddin Qizil Arslon Ildigiz, Faxriddin Malik Arslon Muzaffar, Alouddin Otsiz bin Muhammad, Sulton G‘iyosiddin Muhammad bin Mahmud bin Muhammad Malikshoh Saljuqiy, Muhammad Xorazmshoh Takash ibn El Arslon, Muzaffariddin Qizil Arslon Ildigiz, Abdulfattoh Shirvonshoh Manuchehr, G‘iyosiddin Muhammad Ma’sud Malikshoh, Jamoliddin Shirvonshoh Axsatan bin Manuchehr, Abulmuzaffar Shirvonshoh Axsatan bin Manuchehr, Abulmuzaffar Jaloliddin Shirvonshoh, Imom Nosiriddin, Otabek Mansur Shamaxi Farmonchisi, Malik ul-vuzaro Jamoliddin Isfaxoniy, Kofiuddin Umar ibn Usmon va boshqalar madhida yozilgan.

Xulosa qilib aytganda, Xoqoniy Shirvoniy qasidalar mavzu va g‘oya jihatidan nihoyatda rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shoir mumtoz qasidavislik an‘analarini davom ettirish bilan birga, janrning badiiy va uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Tadqiqot davomida devondagi qasidalar mumtoz devonchilik an‘analariga muvofiqligi, ularning aksariyati diniy mavzularga bag‘ishlanganligi aniqlanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шомухамедов Ш. Форс шеърятининг асосий шакллари. – Тошкент, 2004.
2. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
3. Юсупова Д. Аруз вазни ва мумтоз поетика. – Тошкент: Таълим медиа, 2019.
4. Рейснер М. Персидская лироэпическая поэзия X – начала XIII века. – Москва: Наталис, 2006.

5. Ҳасанова М. XV аср туркий шеърятнда қасида жанри: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018.
6. Imomova R. Rauf Parfi she’riyatida marsiya tajribalari // Internation scientific – online conference. – 2023.
7. Казакова У. Қасыда и её традиции в персидско – таджикской поэзии XIII-XIV веков: Дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2006.
8. Келдиёров Т. “Шарҳи қасоиди Хоқоний” – и Алавий Шодиободий ва масъалаҳои маърифати бадеий ашъори Хоқоний: Diss. ... канд. филол. наук. – Хужанд, 2000.
9. Wright C. The divan of Manuchiri Damghani: Diss of Doctor of Philosophy in arts and sciences. – Ann Arbor: University of Michigan, 1971.
10. ذبیح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران. جلد دوم. – تهران، ۱۳۷۱. ص. ۷۸۲.
11. يان ريپكا و ديگران. تاريخ ادبيات ايران. – تهران، ۱۳۸۱. ص. ۲۸۱.
12. محمّد معين و سيّد جعفر شهيدى. لغت نامه دهخدا. جلد يازدهم – تهران، ۱۳۷۳. ص. ۱۵۵۳.
13. سيداحمد حسيني كازروني. قصيده، معاني و سير تحوّل آن تا سده هفتم و هشتم هجري در ادب فارسي. – ايران، ۱۳۹۵. ص. ۸.